

BADIIY ADABIYOTNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

Ermuhammadov Shoxruh

Guliston davlat pedagogika instituti

Milliy g'oya va manaviyat huquq asoslari yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Adabiyot jamiyat hayotining o'ziga xos ifodasi va taqdiridir. Ushbu maqolada badiiy adabiyotning jamiyat taraqqiyotiga va inson ruhiyatiga ta'siri hamda milliy o'zlikni anglashda, ma'naviy qadriyatlarni tiklashdagi o'rni tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Adabiyot , jamiyat , milliy qadriyatlar, ma'naviyat , ma'rifat ,inson ,estetika ,qalb,vatanparvarlik*

Abstract: *Literature is a unique expression and destiny of social life. This article analyzes the impact of fiction on the development of society and the human psyche, as well as its role in understanding national identity and restoring spiritual values.*

Keywords: *Literature, society, national values, spirituality, enlightenment, person, aesthetics, soul, patriotism*

Аннотация: *Литература является уникальным выражением и определяет судьбу общественной жизни. В данной статье анализируется влияние художественной литературы на развитие общества и человеческой психики, а также её роль в понимании национальной идентичности и восстановлении духовных ценностей.*

Ключевые слова: *литература, общество, национальные ценности, духовность, Просвещение, человек эстетика душа патриотизм*

Adabiyot ma'naviyatni yuksaltiruvchi vosita. U inson qalbi va ruhidagi tovlanishlar va ohanglarni ilg'ashga, ularni so'z vositasida aks ettirishga intiladi. Dunyoda insonlar bir-birlariga o'xshamaganlaridek, ularning qalb kechinmalari ham takrorlanmasdir. O'zbek adabiyoti tarixi inson ruhiy holatlarini mahorat bilan aks

ettirgan durdonalarga boy. Ular hozirgi avlod ruhiyatida, qalbid ham

hayajon uyg'ota oladi. U faqat ma'naviyatimizni emas, balki badiiy didimizni ham rivojlantiradi.

Insonni, uning ma'naviy olamini kashf etadigan qudratli vosita borki, u ham bo'lsa, so'z san'ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotni insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilar

inson ruhining muhandislaridir. Adabiyot, so'z san'ati azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo'lib keladi.[1:136]

Har bir adabiyot milliydir, shunga ko'ra har bir xalqning tarixiy hayotidagi va ruhiyatidagi xususiyatlar adabiyotning milliyliги mazmunini tashkil etadi va o'ziga xos milliy shaklni yuzaga keltirib chiqaradi. Milliy shaklning yuzaga kelishida adabiyot tomonidan uzoq davr mobaynida yig'ilgan tajriba va an'ananing ham ahamiyati katta. Xalq hayotidagi yangi davr esa adabiyotni yangi, yuqoriroq bosqichga ko'taradi, uning mazmuni va shaklini ham yangilaydi, ham boyitadi. Yangilangan adabiyot o'z navbatida yangi jamiyatning mustahkamlanishida qudratli qurol vazifasini o'taydi.

Hozirgi zamon o'zbek adabiyotida adabiyotning tasvir obyektini umuman ijtimoiy voqelik bo'lsa, bosh tasvir obyektini esa inson va jamiyatdir. Adabiyotda insonning ijtimoiy mohiyati umumlashtirilgan holda ifoda etiladi. Shuning uchun ham adabiyotning maqsadi ma'lum bir ijtimoiy-siyosiy kuchning mohiyatini to'la ifodalashdir. Adabiyot voqelikni aks ettirar ekan, unga go'zallik qoidalari nuqtai nazaridan yondashadi. Binobarin, asar predmetini tanlash ham g'oyat muhim ijodiy nuqtadir. Chunonchi, asarning ta'sirli chiqishi, boshqa ko'p mezonlar qatori, shunga asos qilib olingan fikrning emotsionalligi, ko'tarinkiligiga ham bog'liq bo'ladi.

Badiiy asarlarda urush va tinchlik, tog' va daryolar, shahar va qishloq, inson va hayvonot dunyosi, o'simliklar olami, hattoki sukunat ham qalamga olinaveradi. Ammo bularning barchasi inson qalbi, uning ruhiyati, ma'naviyati bilan bog'liq bo'ladi. Demak adabiyotning markazida doim inson turadi.

Masalan, gul, bahor, qush, tosh, ot tasviriga bag'ishlangan asarlar bo'lishi mumkin. Biroq bu asarlarda ham insonning borliqqa bo'lgan munosabati aks etadi. Aslida bular insonning go'zalikka bo'lgan intilishi bilan bog'liq. Shu ma'noda adabiyot estetik tarbiya vositasi ham deyiladi.

Adabiyot — fikr ommasi, qalb hislari bilan doimo sayqallanadigan, to'xtashni bilmaydigan, borgan sari hamisha nurlanishi, chaqnashi oshib boradigan bir soha. Adabiyot turmushni aks ettiradi, turmushdagi voqealar, hodisalar, fikr va tuyg'ularni umumiyashtirib, obrazlar bilan turmushni, dunyoni anglashga tirishadi. Adabiyotimizning tasvir obyektini — xalqimiz turmushi. U o'z taraqqiyotida xalq hayotini, kurashini, orzu-armonlarini, his-tuyg'ularini, fikr-xayollarini yangi jamiyat qurish yo'lidagi faoliyatini badiiy aks ettirib rivojlandi, benihoya yutuqlarni qo'lga kiritdi.

Milliy mustaqillikka erishgan o'zbek xalqi hayotning barcha jabhalarida o'zligini namoyon etmoqda. Jumladan, istiqlol davri adabiyoti tub sifat o'zgarishlariga erishmoqda. Bu davrda ijodkor olam va odam haqida avvalgidan farqli fikrlash mumkinligini chuqur anglab faoliyat ko'rsatmoqda. Natijada, olamni, odamni, ularning tuyg'ularini turlicha ifodalaydigan badiiy asarlar yaratish boshlandi. Bu davr adabiyotida tasvirlanayotgan inson o'zining bashariyat, Vatan, el-yurt oldidagi mas'uliyati, ota-onani oldidagi ma'suliyatini chuqur his etgan holda namoyon bo'lmoqda.

Bugungi globallashtirish davrida texnologiya qanchalik tez rivojlanmasin, inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsata oluvchi eng kuchli omil bu — badiiy asardir. Adabiyot orqali yosh avlod qalbiga milliy g'urur, vatanparvarlik, odoq-axloq, sabr-toqat kabi fazilatlar singdiriladi. Shu jihatdan olganda, badiiy adabiyot nafaqat shaxsning, balki butun jamiyatning ma'naviy yuksalishida asosiy tayanchlardan biri hisoblanadi.

Bilamizki, buyuk allomalarimiz, o'tgan va bugungi asrda yashagan ijodkorlarimiz ijodini, ular yaratgan boy ma'naviy boylikni o'rganish bo'yicha ta'lim muassasalarida o'quv fani, qo'shimcha mashg'ulotlar sifatida bir qancha ma'naviy ma'rifiy ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Ayniqsa, katta miqdordagi ma'naviy merosni jamlagan bebaho kutubxonalarimiz mavjudligi, juda quvonarli hol. Biroq bizni o'ylantirgan masalaning boshqa tomoni ham borki, bu insonni sergak tortishga undaydi. Bu ham bo'lsa, bugungi

kunda adabiyotga, badiiy ijodga bo'lgan qiziqishning susayib borayotganidir. Natijada turli xil notinchliklar, janjallar yuzaga kelmoqda

Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, bugungi kunda, ayniqsa, yoshlarda insoniy jihatlarning susayib, deyarli yo'qolib borayotganiga aslida bilim olishga intilish, kitob o'qishga, mutolani sevishga bo'lgan harakatning, ishtiyoqning yo'qligi sabab bo'lmoqda. Natijada jamiyat hayotida turli notinchliklar, janjallar, axloqsizliklar, global miqyosidagi ma'naviy qashshoqlik yuzaga kelmoqda.

Badiiy asarlar estetik tarbiyaning eng muhim manbalaridan biridir. Har bir adabiy matn o zida syujet, kompozitsiya, obraz, badiiy til, stil, simvolika kabi adabiy komponentlar orqali go zallik mezonlarini mujassamlashtiradi. A. Qodiriyning —O tgan kunlar|| romanidagi Kumush obrazida sadoqat, iffat, estetik go zallik mujassam. Kumushning tasvirida ishlatilgan epitetlar va badiiy tasvir vositalari obrazning nafaqat tashqi, balki ichki go zalligini ochib beradi.[2.370]

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki jamiyat va adabiyot bir biri bilan chambarchas bog'liqdir. Bir birini to'ldirgan holda rivojlanadi. Adabiyot o'tmish va kelajakni bog'lab turuvchi ko'prikdir. faqat ma'lumot bilan emas, balki tuyg'ular orqali ham boyitadi.

Adabiyot nafaqat shaxsni, balki butun jamiyatni ma'naviy yuksaltirishga xizmat qiladi. Shu bois, badiiy asarlar o'qilishi va targ'ib qilinishi, ayniqsa, yoshlar orasida, nihoyatda dolzarbdir.

Agar adabiyot inson qalbiga kirib, unda ezgulik, or-nomus, vijdon tuyg'ularini uyg'ota olsa –jamiyat ham o'zgaradi. Biz millat sifatida o'z adabiyotimiz orqali o'z ligimizni anglaymiz

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. I. Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch–Toshkent. Ma'naviyat 2010.136-bet
2. .K.Mirzayeva. Adabiyot fanining estetik tarbiyadagi ahamiyati. 370-bet
3. E.Xudoyberganov. Adabiyotshunoslikka kirish-Toshkent.2004.33-bet